



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|----------------|--|
| 1. | B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. | Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. | G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. | X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. | U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. | D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. | G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. | Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. | Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. | N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. | M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. | S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | | |
|-----|-----------------|---|
| 1. | M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. | M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. | U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. | F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. | L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. | M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. | Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. | M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. | G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. | R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. | M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. | F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. | N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. | M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. | M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. | M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

“ALPOMISH” DOSTONI – XALQ ETOSI VA AXLOQIY ME’YORLARNING BADIY IFODASI

Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna,

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Alpomish” dostoni misolida xalq og'zaki ijodining axloqiy va tarbiyaviy asoslari tahlil qilinadi. Dostonlarda avloddan-avlodga o'tgan axloqiy qadriyatlar, milliy o'zlik va xalq etosining shakllanish jarayoni yoritiladi. Ayniqsa, baxshilarning doston kuylash jarayonidagi ma'naviy mas'uliyati, ularning xulq-atvori va axloqiy mezonlari dostonning tarbiyaviy kuchi bilan uyg'un holda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: doston, etos, axloq, xalq og'zaki ijodi, “Alpomish”, baxshi, tarbiya.

Аннотация. В статье анализируются нравственные и воспитательные основы народного устного творчества на примере эпоса «Алпомиш». Рассматривается процесс формирования народного этоса и национального самосознания через эпические ценности, передаваемые из поколения в поколение. Особое внимание уделено духовной ответственности бахши, его поведению и этическим нормам, составляющим воспитательную силу эпоса.

Ключевые слова: эпос, этос, нравственность, устное народное творчество, «Алпомиш», бахши, воспитание.

Abstract. This article analyzes the moral and educational foundations of folk oral creativity through the example of the epic “Alpomish.” It explores how the national ethos and moral values are formed and transmitted from generation to generation. Special attention is given to the moral responsibility of the bard (bakhshi) and the ethical norms reflected in their performance, which contribute to the educational and cultural power of the epic.

Keywords: epic, ethos, morality, folklore, “Alpomish,” bard, education.

O'zbek xalq og'zaki ijodi – milliy tafakkur, axloq va dunyoqarashning eng qadimiy manbalaridan biridir. Dostonchilik esa shu ijodiy merosning eng yuksak shakli sifatida xalq hayoti, orzu-intilishlari, ezgulik va yovuzlik, sadoqat va jasorat kabi tushunchalarni o'zida mujassam etadi. Dostonlar og'izdan-og'izga, avloddan avlodga o'tar ekan, uni kuylagan har bir baxshi-shoirning ijodiy salohiyati bilan boyiydi, yangicha ruh kasb etadi. Shu jarayonda har bir doston o'z “etos” — ya'ni xalq axloqiy qadriyatlarini mujassamlashtiruvchi ma'naviy asosni shakllantiradi.

“Alpomish” dostoni ana shunday asarlardan bo'lib, u nafaqat xalq qahramonlik ruhi, balki axloqiy tarbiya tizimini ham o'zida mujassam etadi. Unda har bir obraz, har bir voqea millatning o'ziga xos qadriyatlari bilan sug'orilgan bo'lib, xalqning ma'naviy idealini ifodalaydi.

Dostonchilik noyob san'at turi sifatida ijodkor-baxshilar tomonidan ustoz-shogird an'anasi doirasida saqlab kelmoqda. Respublikamiz hududida shakllangan va hozirgacha davom etib kelayotgan dostonchilik maktablari say'-harakati bilan katta miqdordagi dostonlarimiz ma'naviy meros sifatida yetkazib berilgan. Ming yillar davomida yaratilib, sayqal topib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan bu betakror ma'naviy merosimiz durdonalarida xalqimizning o'ziga xos dunyoqarashi, azaliy e'tiqodiy tushunchalari, keng tafakkur tarzi, hayotga bo'lgan estetik munosabati, orzu-intilishlari, istak-umidlari, urf-odatlar talqini betakror badiiy ifodasini topganligi bilan alohida e'tiborni tortadi. Qahramonlik, vatanparvarlik, odamiylik, o'zaro mehr-oqibat, do'stlik va hamjihatlik, oila sha'nini himoyalash kabi muhim insoniy g'oyalar tarannumiga bag'ishlangan “Alpomish” dostoni epik merosga ega barcha xalqlarning badiiy tafakkuri tadrijini tadqiq etish va nazariy xulosalar chiqarishda asosiy obyekt bo'la oladi. Chunki uning sujeti va obrazlar tarkibida qadimgi yunon eposi “Odisseya”, koreys dostoni “Jumong” bilan o'xshashliklar borligi

aniqlangan. Doston butun turkiy xalqlarning baxshilari orasida ham mashhur. Uning qator versiya va variantlari yozib olingan.

Dostonlar og'izdan-og'izga, avloddan avlodga o'tar ekan, uni kuylab kelgan har bir baxshi-shoirning ijodiy salohiyati bilan bog'liq kuch-qudratni birlashtiradi. Shu kuch qudrati bilan butun bir millat, xalq dunyoqarashi shakllanishiga turtki beradi. Uning doirasida o'sha millat va xalqqa xos ta'lim-tarbiya, axloq meyo'rlari ham avloddan avlodga uzatib boriladi. Doston mazmuniga singdirilgan axloqiy tushunchalar esa uning "etos"ini tashkil qiladi. Natijada har bir dostonda "doston etosi" yuzaga chiqadi. Uni dostondagi axloqiy normalar hamda doston kuylash tartibi, dostonchi (kuychi, baxshi)ning xulq-atvorini belgilaydigan axloqiy me'yorlar majmui tashkil topadi.

Baxshi tomonidan kuylanayotgan har bir satrda xalqning ma'naviy kuchi, e'tiqodi va qadriyati ifodalanadi. Baxshi uchun doston kuylash — bu oddiy ijro emas, balki ma'naviy mas'uliyat, xalq ruhi bilan birlashishdir. Shu bois baxshi axloqiy jihatdan pok, o'z so'ziga sadoqatli, odobli bo'lishi talab etiladi. U xalq tarbiyasining bevosita targ'ibotchisiga aylanadi.

"Alpomish" dostonida axloqiy etos quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. **Vatan va elga sadoqat** – Alpomish obrazi orqali xalq o'z yurtini himoya qilish, millat sha'nini asrash kabi eng yuksak fazilatlarini ulug'laydi.

2. **Oila qadriyati** – Barchin obrazida vafodorlik, mehr va sabr timsoli yaratilgan.

3. **Adolat va insof** – doston qahramonlari har qanday sinovda halollikni saqlab, ezgulikni himoya qiladilar.

4. **Ma'naviy poklik** – har bir obraz axloqiy mezonlarga tayanadi, bu esa xalqning axloqiy idealini belgilaydi.

Dostonning asosiy kuchi – uning xalq ongiga chuqur singgan ma'naviy-axloqiy g'oyalaridadir. Shu bois "Alpomish" asri avlodlar ongida nafaqat qahramonlik namunasi, balki tarbiyaviy qo'llanma sifatida ham yashab kelmoqda.

"Alpomish" dostoni o'zbek xalqining ma'naviy boyligi, axloqiy me'yorlari va milliy o'zlikni shakllantirishdagi muhim omillardan biridir. Uning "etos"i – xalq tarixi, qadriyati, odob va axloqining badiiy mujassamidir. Dostonni kuylagan baxshilar bu merosni nafaqat saqlab qolgan, balki unga o'z davrining ma'naviy ruhini singdirgan.

Demak, "Alpomish" dostonining axloqiy va tarbiyaviy mohiyatini o'rganish, xalq etosini anglash va yosh avlod ongiga singdirish — milliy ma'naviyatni mustahkamlashning eng samarali yo'llaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Нашрга тайёрловчилар Ҳ.Зарифов ва Т.Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 400 б.

2. Алпомиш. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. 100 жилдлик. Биринчи жилд. Достон. Фозил Йўлдош ўғли варианти. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 512 б.

3. Baxshulloyevna, S. M. (2022). «ALPOMISH» DOSTONI-VATANPARVARLIK FAZILATLARIDAN SABOQ BERUVCHI MA'NAVIY DURDONA. Scientific Impulse, 1(4), 1426-1430.

4. Sharipova, M. B., & Ravshanova, G. F. Q. (2021). QAHRAMONLIK DOSTONLARINING O'ZIGA XOSLIGI: MILLIY RUH VA AN'ANALAR. Scientific progress, 2(7), 1139-1144.

5. Шарипова, М. Б., & Саъдуллаева, М. Б. К. (2020). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ ДЕТЕЙ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ. Проблемы педагогики, (6 (51)), 58-60.

6. Sharipova, M. (2020). O'quvchi yoshlar tarbiyasida o'lmas an'ana va marosimlarning ahamiyati. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

7. Sharipova, M. B., & Nozirova, M. J. Q. (2021). O'ZBEK XALQ DOSTONLARINI O'QITISHDA KOMPYUTER IMKONIYATLARI. Scientific progress, 2(7), 1102-1108.

8. Sharipova, M. B., & Farmonova, G. S. Q. (2021). NIKOHDAN SO'NG ADO ETILADIGAN URF-ODATLAR TASVIRI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). Scientific progress, 2(7), 1125-1129.
9. Sharipova, M. B. (2021). XALQ DOSTONLARIDA SOVCHILIK MAROSIMI BADIY IFODASI ("ALPOMISH" DOSTONI MISOLIDA). Scientific progress, 2(7), 1120-1124.
10. Sharipova, M. B., & Mirzayeva, X. N. (2021). XALQIMIZ MADANIYATINING HAYOTBAXSH SARCHASHMASI. Scientific progress, 2(7), 1135-1138.
11. Шарипова, М. Б., & Нейматова, Ш. Н. (2020). Формирование эстетической культуры воспитанников дошкольных образовательных учреждений. Вестник магистратуры, (3-3 (102)), 113-114.
12. Sharipova, M. (2020). Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimizning nodir hazinasi ("Alpomish" dostoni misolida). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
13. МА'NAVIY, Y. A. R. V., & O'RNI, D. B. Q. E. DOI: 10.53885/edinres. 2021.17. 14.046 Sharipova Maxbuba Baxshilloyevna BuxDU. Maktabgacha ta'lim.
14. Sharipova, M. B., & Shokirova, N. Z. Q. (2021). «ALPOMISH» DOSTONI-BADIY BARKAMOL ASAR. Scientific progress, 2(7), 1145-1148.
15. Sharipova, M. (2020). ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРЯДОВ В ЭПОСЕ «АЛПОМИШ». ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).